



SUN'IIY INTELLEKT VA IJTIMOIIY TARMOQLAR SHAROITIDA SHAXSNING TASVIRIGA BO'LGAN HUQUQI: NAZARIY-HUQUQIIY TAHLIL VA AMALIIY MUAMMOLAR.

Matyoqubov Matyoqub Marksovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
"Xalqaro huquq" fakulteti, 2 - bosqich talabasi,
matyoqub206@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi sharoitida shaxs tasviriga bo'lgan huquqni fuqarolik-huquqiy muhofaza qilish masalalari tahlil qilinadi. Raqamli muhitda shaxs tasvirlaridan roziliksiz foydalanish, ularni qayta ishlash, o'zgartirish va tarqatish holatlarining ko'payishi shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxsiy nomulkiy huquqlarga jiddiy tahdid tug'dirayotgani asoslab beriladi. Maqolada shaxs tasviriga bo'lgan huquqning nazariy-huquqiy mohiyati ochib berilib, uning shaxsiy nomulkiy huquqlar tizimidagi o'rni aniqlanadi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida yaratilayotgan tasvirlar (jumladan, deepfake texnologiyalari) va ijtimoiy tarmoqlarda tasvirlardan foydalanish bilan bog'liq huquqiy muammolar ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik qonunchiligi tahlil qilinib, tasvir huquqini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Shaxs tasviri, tasvirga bo'lgan huquq, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar, shaxsiy hayot daxlsizligi, fuqarolik-huquqiy muhofaza, deepfake texnologiyalari, raqamli muhit.

I. Kirish

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi shaxsga oid axborotlar, xususan, shaxs tasviridan foydalanish ko'lamini keskin kengaytirdi. Raqamli muhitda fotosuratlar, videoyozuvlar va boshqa vizual materiallarning tezkor tarqalishi shaxsning o'z tasviri ustidan nazorat qilish imkoniyatini sezilarli darajada cheklamoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt yordamida tasvirlarni tahrirlash, o'zgartirish va yangi tasvirlar yaratish (jumladan, deepfake texnologiyalari)⁵⁵ shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxsiy nomulkiy huquqlarga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Shaxsning tasvirga bo'lgan huquqi fuqarolik huquqida shaxsiy nomulkiy huquqlarning muhim turlaridan biri bo'lib, u jismoniy shaxsning o'z tashqi qiyofasini aks ettiruvchi fotosuratlar, videoyozuvlar, portretlar va boshqa vizual shakllar ustidan

⁵⁵ <https://security.virginia.edu/deepfakes>

nazorat qilish hamda ulardan foydalanishni cheklash huquqini anglatadi.⁵⁶ Ushbu huquq inson sha'ni, qadr-qimmati va shaxsiy hayot daxlsizligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, shaxsning roziligisiz uning tasvirini yaratish, tarqatish yoki undan foydalanishni cheklashga qaratilgan huquqiy kafolatlarni o'z ichiga oladi. Huquqiy tabiatiga ko'ra, shaxs tasviri nomoddiy ne'mat sifatida e'tirof etiladi va u shaxsdan ajralmas bo'lib, bevosita uning individualligini ifodalaydi.

Biroq raqamli muhitda shaxs tasviriga bo'lgan huquqni amalga oshirish va himoya qilish masalalari an'anaviy huquqiy yondashuvlardan tashqariga chiqmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda tasvirlardan roziliksiz foydalanish, ularni tijorat maqsadlarida qo'llash yoki ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish bilan bog'liq holatlar amaliyotda ko'plab nizolarni keltirib chiqarmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari esa ushbu muammolarni yanada murakkablashtirib, tasvimi soxtalashtirish, shaxs obro'siga putur yetkazish va noto'g'ri axborot tarqatish xavfini kuchaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik qonunchiligida shaxs tasviriga bo'lgan huquq shaxsiy nomulkiy huquqlar doirasida tan olingan bo'lsa-da⁵⁷, uni raqamli muhitda, xususan, sun'iy intellekt va ijtimoiy tarmoqlar sharoitida muhofaza qilish mexanizmlari yetarli darajada aniq va tizimli tartibga solinmagan. Shu sababli, shaxs tasviriga bo'lgan huquqning nazariy-huquqiy mohiyatini ochib berish, uni zamonaviy texnologiyalar ta'siri ostida yuzaga kelayotgan yangi munosabatlar kontekstida tahlil qilish hamda amaldagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

II. Asosiy qism

Shaxs tasviri insonning tashqi qiyofasini aks ettiruvchi va uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi vizual axborot shakli hisoblanadi. Huquqiy nuqtai nazardan shaxs tasviri fotosurat, videoyozuv, portret, raqamli tasvir, shuningdek, texnologik vositalar yordamida yaratilgan yoki qayta ishlangan har qanday tasviriy ifodalarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji natijasida shaxs tasvirining shakllari an'anaviy doiradan chiqib, raqamli va virtual muhitda ham keng qo'llanila boshladi.

Fuqarolik huquqida shaxs tasviri nomoddiy ne'mat sifatida e'tirof etiladi. Nomoddiy ne'matlar shaxsning moddiy manfaatlari bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo uning sha'ni, qadr-qimmati, shaxsiy hayoti va individualligini ifodalovchi huquqiy qadriyatlar majmuasini tashkil etadi. Shu ma'noda shaxs tasviri inson shaxsiyatining tashqi ifodasi bo'lib, u shaxsdan ajralmas xususiyatga ega. Tasvirning aynan shu ajralmasligi uni mulkiy obyektlardan tubdan farqlaydi.

Shaxs tasviriga bo'lgan huquq shaxsiy nomulkiy huquqlar tizimiga kiradi va shaxsning o'z tasviri ustidan nazorat qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Ushbu huquq

⁵⁶ <https://www.jstor.org>

⁵⁷ <https://lex.uz/mact/-111189>

shaxsga o'z tasvirini yaratish, undan foydalanish yoki foydalanishni cheklash, shuningdek, rozilgisiz tasvirdan foydalanilishiga qarshi chiqish huquqini beradi. Bunda tasvir huquqi inson sha'ni va qadr-qimmatini muhofaza qilishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.⁵⁸

Huquqiy tabiatiga ko'ra, shaxs tasviri axborot xarakteriga ega bo'lsa-da, u oddiy axborotdan farqli ravishda bevosita aniq shaxs bilan bog'langan bo'ladi. Shu sababli, shaxs tasviri faqatgina texnik yoki vizual ma'lumot sifatida emas, balki shaxsning huquqiy maqomi va shaxsiy hayot daxlsizligi bilan chambarchas aloqador obyekt sifatida baholanadi. Aynan mana shu xususiyat tasvirga bo'lgan huquqni fuqarolik huquqining mustaqil muhofaza qilinadigan institutlaridan biri sifatida ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Zamonaviy raqamli muhitda shaxs tasvirining huquqiy tabiati yanada murakkablashmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida yaratilgan yoki o'zgartirilgan tasvirlar shaxsning real tashqi qiyofasiga mos kelmasligi mumkin, biroq ular jamiyat tomonidan aynan o'sha shaxsga nisbat beriladi. Bu holat shaxs tasvirining faqat real aks ettirish bilan cheklanmasdan, shaxsni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi har qanday vizual ifodani qamrab olishini ko'rsatadi. Demak, shaxs tasviriga bo'lgan huquqni faqat an'anaviy foto yoki video bilan bog'lab qo'yish zamonaviy huquqiy munosabatlarni to'liq qamrab olishga imkon bermaydi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, sun'iy intellekt va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi shaxs tasviriga bo'lgan huquqni amalga oshirish va muhofaza qilish sohasida bir qator murakkab huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolar an'anaviy fuqarolik-huquqiy yondashuvlar doirasida to'liq yechim topmayotgani bilan ajralib turadi.

Birinchidan, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan yoki o'zgartirilgan tasvirlarning huquqiy maqomi noaniq bo'lib qolmoqda. Deepfake texnologiyalari orqali shaxsning real tasviriga o'xshash, biroq u tomonidan hech qachon yaratilmagan yoki rozilik berilmagan tasvirlar hosil qilinmoqda. Amaldagi qonunchilikda bunday tasvirlar shaxs tasviriga bo'lgan huquq obyektimi yoki yangi turdagi raqamli mahsulot sifatida baholanishi masalasi aniq tartibga solinmagan. Natijada, bunday holatlarda huquqbuzarlikni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va javobgarlik choralari qo'llashda amaliy qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.⁵⁹

Ikkinchidan, shaxs tasviridan roziliksiz foydalanish holatlarini isbotlash muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Raqamli muhitda tasvirlar qisqa vaqt ichida ko'chirilishi, tahrirlanishi va turli platformalarda tarqatilishi mumkin. Bu esa tasvir huquqi buzilganligini isbotlash uchun zarur bo'lgan dalillarni to'plashni murakkablashtiradi.

⁵⁸ "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun, 2019

⁵⁹ European Parliament. Artificial Intelligence and Fundamental Rights.



Aksariyat hollarda jabrlanuvchi shaxs tasvirning qachon, kim tomonidan va qaysi maqsadda joylashtirilganini aniqlay olmaydi.⁶⁰

Uchinchidan, huquqbuzar shaxsni aniqlash bilan bog'liq muammolar mavjud. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarda foydalanuvchilar anonim yoki soxta akkauntlar orqali harakat qilishi mumkin. Natijada, shaxs tasviriga bo'lgan huquq buzilgan hollarda bevosita javobgar shaxsni aniqlash deyarli imkonsiz bo'lib qolmoqda. Amaldagi qonunchilik esa platforma egalari yoki axborot resurslari administratorlarining bunday holatlardagi javobgarligini aniq belgilab bermaydi.⁶¹

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy va jamoat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni aniqlash murakkablashmoqda. Jamoat joylarida olingan tasvirlar, ommaviy tadbirlar jarayonida tasvirga tushgan shaxslar yoki jamoat arboblarning tasvirlaridan foydalanish masalalari ko'pincha bahsli tus oladi. Qaysi holatda rozilik talab etilishi, qaysi holatda esa axborot erkinligi ustuvor bo'lishi lozimligi aniq mezonlar bilan belgilanmagan.

Shaxs tasviriga bo'lgan huquq masalasi huquq doktrinasida uzoq vaqt davomida muhokama qilinib kelinmoqda. Ushbu masalada eng muhim va ta'sirchan yondashuvlardan biri XIX asr oxirida shakllangan bo'lib, u shaxs tasvirini shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bilan chambarchas bog'laydi. Mazkur yondashuv ilk bor Samuel D. Warren va Louis D. Brandeis tomonidan ishlab chiqilgan.⁶²

Ularning "[The Right to Privacy](#)" nomli mashhur ilmiy asarida shaxsning o'z hayotiga oid axborotlar, jumladan, tasviri ustidan nazorat qilish huquqi mustaqil huquqiy qadriyat sifatida asoslab beriladi. Mualliflar shaxs tasviridan roziliksiz foydalanishni shaxsiy hayot daxlsizligiga tajovuz sifatida baholab, bunday holatlarda huquqiy himoya choralarini qo'llash zarurligini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuvga ko'ra, shaxs tasviri insonning individualligini aks ettiruvchi element bo'lib, uni tarqatish yoki undan foydalanish masalasi, avvalo, shaxsning roziligiga bog'liq bo'lishi lozim. Shu bilan birga, mualliflar jamoat manfaatlari mavjud bo'lgan alohida holatlarda, masalan, ijtimoiy ahamiyatga ega axborotni tarqatishda, mazkur huquq muayyan darajada cheklanishi mumkinligini ham e'tirof etadilar. Mazkur nazariy qarashlar bugungi kunda ham sun'iy intellekt va ijtimoiy tarmoqlar sharoitida shaxs tasvirini muhofaza qilish masalalarining asosiy nazariy poydevori sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Shaxs tasviriga bo'lgan huquqni talqin qilishda ikkinchi muhim yondashuv XX asrda shakllangan bo'lib, u tasvir huquqining iqtisodiy jihatiga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuv amerikalik huquqshunos Melville B. Nimmer nomi bilan

⁶⁰ Maleina M.N. Личные неимущественные права граждан.

⁶¹ Council of Europe. *Privacy and Data Protection in Social Media*.

⁶² jstor.org



bog'liq. U "The Right of Publicity" konsepsiyasi orqali shaxs tasvirini iqtisodiy qiymatga ega obyekt sifatida baholashni taklif etadi.⁶³

Mazkur nazariyaga ko'ra, ayniqsa jamoatchilikka tanilgan shaxslarning tasviri reklama, marketing va boshqa tijorat faoliyatlarida mustaqil iqtisodiy resurs sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, shaxs tasviridan roziliksiz tijorat maqsadlarida foydalanish shaxsning nafaqat shaxsiy, balki mulkiy manfaatlariga ham zarar yetkazadi. Nimmer shaxs tasviriga bo'lgan huquqni mulk huquqiga o'xshash huquq sifatida himoyalashni taklif etib, bunday huquqbuzarliklar uchun moddiy kompensatsiya undirishni asosli deb hisoblaydi. Ushbu yondashuv hozirgi kunda reklama sohasida, ijtimoiy tarmoqlarda influencerlar faoliyati va raqamli kontentni tijoratlashtirish jarayonlarida keng qo'llanilmoqda.

Shu tariqa, shaxs tasviriga bo'lgan huquq masalasida bir tomondan, uni shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog'lovchi klassik yondashuv, ikkinchi tomondan esa, tasvining iqtisodiy ahamiyatini e'tirof etuvchi yondashuv mavjudligi kuzatiladi. Zamonaviy huquqiy munosabatlar, xususan, sun'iy intellekt va ijtimoiy tarmoqlar sharoitida ushbu ikki yondashuvni muvozanatli tarzda uyg'unlashtirish zarurati tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

III. Xulosa

Ushbu maqolada sun'iy intellekt va ijtimoiy tarmoqlar sharoitida shaxs tasviriga bo'lgan huquq bilan bog'liq asosiy masalalar ko'rib chiqildi. Shaxs tasviri shaxs bilan ajralmas darajada bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy huquq bo'lib, u insonning sha'ni, qadr-qimmatini va shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Raqamli texnologiyalar rivoji natijasida shaxs tasviridan foydalanish shakllari kengayib, bu huquqni amalga oshirish va muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlar yanada murakkablashmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida yaratilayotgan yoki o'zgartirilayotgan tasvirlar shaxs tasviriga bo'lgan huquqni himoya qilishda yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bunday tasvirlar ko'pincha shaxsning roziligisiz yaratiladi va tarqatiladi, bu esa shaxsiy hayot daxlsizligi hamda sha'n va obro'ga putur yetkazish xavfini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda tasvirlardan foydalanish tezkorligi va ommaviyligi tasvir huquqi buzilgan holatlarni aniqlash, huquqbuzar shaxsni topish va zararni bartaraf etishni qiyinlashtirmoqda.

Amaldagi qonunchilikda shaxs tasviriga bo'lgan huquq umumiy tarzda e'tirof etilgan bo'lsa-da, uni raqamli muhitda amalga oshirish va himoya qilish mexanizmlari yetarli darajada aniq belgilab berilmagan. Xususan, sun'iy intellekt asosida yaratilgan tasvirlarning huquqiy maqomi, platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning mas'uliyati, shuningdek, tasvir huquqi buzilgan hollarda tezkor va samarali himoya choralarini qo'llash masalalari ochiq qolmoqda. Bu holat huquqni qo'llash amaliyotida turli talqinlarga va nizolarga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, shaxs tasviriga bo'lgan

⁶³ **The Right of Publicity.** *Law and Contemporary Problems*, Vol. 19, No. 2, pp. 203–223.

huquqni amalga oshirish jarayonida shaxsiy manfaatlar va jamoat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash alohida ahamiyatga ega. Jamoat joylarida olingan tasvirlar, ommaviy tadbirlar va jamoat arboblarning tasvirlaridan foydalanish masalalarida aniq mezonlarning mavjud emasligi huquqiy noaniqlikni kuchaytiradi. Bu esa tasvir huquqini mutlaq tarzda cheklash yoki aksincha, uni haddan tashqari tor doirada talqin qilish xavfini keltirib chiqaradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, shaxs tasviriga bo'lgan huquqni sun'iy intellekt va ijtimoiy tarmoqlar sharoitida samarali himoya qilish uchun amaldagi fuqarolik qonunchiligini zamonaviy texnologiyalar talablariga moslashtirish zarur. Tasvir huquqining huquqiy maqomini aniq belgilash, raqamli muhitda undan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish hamda himoya mexanizmlarini kuchaytirish fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli ta'minlashga xizmat qiladi. Shu yo'l bilan texnologik taraqqiyot va inson huquqlari o'rtasida muvozanatni saqlash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent, amaldagi tahrir. – 99-modd.
2. O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni. – 2019 yil. – 8–12-betlar.
3. Koryog'diyev B.U. Tasvirga bo'lgan huquqni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. – PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 10–18-betlar.
4. Warren S.D., Brandeis L.D. The Right to Privacy. – Harvard Law Review, 1890, Vol. 4, No. 5. – 193–205-betlar.
5. Nimmer M.B. The Right of Publicity. – Law and Contemporary Problems, 1954, Vol. 19, No. 2. – 203–215-betlar.
6. Maleina M.N. “Личные неимущественные права граждан”. – Moskva, 2001. – 72–85-betlar.
7. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Artificial Intelligence and the Right to Privacy. – BMT tahliliy hisoboti. – 2021. – 22–30-betlar.
8. Council of Europe. Privacy and Data Protection in Social Media. – Strasbourg, 2020. – 33–39-betlar.
9. European Court of Human Rights. Von Hannover v. Germany. – Sud qarori. – 2004. – 12–17-bandlar.
10. European Parliament. Artificial Intelligence and Fundamental Rights. – Analitik material. – 2021. – 18–25-betlar.
11. <https://hup.harvard.edu>
12. <https://lex.uz>
13. <https://www.jstor.org>
14. <https://security.virginia.edu>